

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

LINGVOKULTUROLOGIYA VA O'XSHATISHLAR (“BAHOR QAYTMAYDI”

QISSASI MISOLIDA)

Annotatsiya: Maqolada lingvokulturologiya sohasining asosiy elementlaridan biri hisoblangan o'xshatish hodisasi va uning turlari O'. Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasi hamda boshqa bir necha misollar orqali tahlilga tortilgan.

Аннотация: В статье феномен сравнения и его виды рассматриваются как один из аспектов анализа в области лингвокультурологии. Анализируется рассказ Гашимова «Весна не возвращается» и ряд других примеров.

Annotation: In the article, the simile phenomenon and its types are considered as one of the analysis of the field of linguistic and cultural studies. Hashimov's short story "Spring does not return" and several other examples are analyzed.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, madaniyat, o'xshatish shakli, turg'un o'xshatishlar, matn-o'xshatish, individual-muallif o'xshatishlari, lingvomadaniy boyluk .

Ключевые слова: лингвокультурология, культура, форма сравнения, устойчивые сравнения, текст-сравнение, индивидуально-авторские сравнения, лингвокультурное богатство.

Key words: linguoculturology, culture, simile form, stable similes, text-simile, individual-author similes, linguistic and cultural wealth.

O'xshatishlar har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, Ular milliy dunyoqarash, borliqdagi predmet, hodisa va harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir. O'xshatishlarning lingvomadaniyatshunoslik bilan bog'liqligi shundaki, har bir xalqda ishlatadigan o'xshatishlar ularning milliy ongiga, tafakkuriga, madaniy hayotiga bevosita aloqador hisoblanadi. Chunki o'xshatishlarni qo'llashda xalq foydalanadigan so'zlar ularning turmush hayotida ishlatadigan narsa- buyumlar, urf-odatlar hamda ko'radigan voqea-hodisalarga tayangan bo'ladi.

O'xshatish shakli. Bir predmetning belgi, harakat jihatdan boshqa predmetga o'xshash ekanini bildiruvchi shakl. Bu shakl –day, -dek affiksi yordamida yasaladi: toshdek, ipakdek kabi. Bahor quyoshning zarrin shu'lasida aksida simobdek yiltirab, oynaday yarqirab oqmoqda.(I. Rahim)¹

O'xshatishlardan tashqi dunyoni yaxshiroq tasavvur qilish maqsadida qadimdan badiiy adabiyotlarda hamda xalq tilida qo'llanilib kelgan. Jumladan, turkey xalqlar adabiyotining eng qadimgi namunalari bo'lgan Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” hamda o'zbek adabiyotidagi ilk didaktik doston hisoblangan Yusuf Xos Hojibning shoh asari “Qutadg'u bilig” asarlarida ham o'xshatishlarning ilk ko'rinishlari uchraydi.

Turkiy xalqlar tafakkurini ifodalashda o'xshatishlarning o'ziga xos o'rni haqida Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida alohida ta'kidlangan: Biror xotin tuqqanda doyardan: tulki tug'dimi yoki bo'rimi deb so'raladi. Ya'ni qizmi yoki o'g'limi demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo'lganliklari uchun tulkiga, o'g'il bolalar ulardagi botirlikka asosan bo'riga o'xshatiladi”² .

¹ Azim Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” ilmiy nashriyoti, 2002, -B. 140.

² Mahmud Qoshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni. 1.- Toshkent: O'zFA, 1963. _B. 404.

Bu o'rinda tulkidek qiz, bo'ridek yigit o'xshatish qurilmasining faqat tulki va bo'ri etaloni qo'llangan bo'lib, uni o'xshatishning qisqargan shakli- metafora deyish mumkin³.

O'xshatishlar o'ziga xos alohida xususiyatlarga ega bo'lib, ular haqida turlicha olimlar fikr yuritishgan va o'xshatishlarning bir necha turlari va unsurlari mavjudligi haqida o'z fikrlarini keltirganlar.

Professor N. Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakily ko'rsatkichi deb nomlaydi. "... o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-expressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi"⁴.

Erkin o'xshatishlar har bir yozuvchining faqat o'ziga xos bo'lgan, boshqalar ijodida uchramaydigan turi hisoblanadi. O'xshatishning bu turi har bir yozuvchi yoki shoirning badiiy mahoratini ko'rsatib beradi. Bunday o'xshatishlar so'znin qanday go'zalligi, teran ma'noliligi yoki kutilmagan o'xshatishlar orqali ma'no xususiyatlarini hamda biror voqeani to'liq tasavvur qiladigan darajada tasvirlaydi.

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasida ham o'xshatishlardan ko'p foydalanilgan bo'lib, ular asarning badiyiligi o'shirishga, asar tilining tushunarli va go'zal bo'lishiga ta'minlashga xizmat qilgan. Bu asarda quyidagi erkin o'xshatishlardan foydalanilgan: cho'chiganday harakatga tushdilar, halqaday o'rab olgan, yelpig'ichday qat-qat, munchoqdek ko'zlar, eslaganday xayolga tolgan, shudringday suv tomchilari, qizlarnikiga o'xshagan ko'z, esiga tushganday so'radi, yo'lakday ochilib, ro'parada bo'ladiganday yuragi zirilladi, o'jakishganday yonmas, gunoh qilib qo'ygan odamdek, cho'q tekkandek qimtimoq, go'yo uning o'zi ham alanga og'ushida yonayotganday, kunduzday qoshlari, soyaday qorayib qoldi kabi birikmalar. Ularning har biri asarga o'z gacha ruh va mazmun bag'ishlagan.

O'xshatishning ikkinchi turi turg'un o'xshatishlar bolib, ularda o'xshatish etaloni barqarorlashgan, ya'ni hamma uchun tushunarli bo'ladi. Qachonlardir biror ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa ham vaqtlar o'tishi bilan hammaning nutqida qo'llanadigan birikmaga aylanadi, umumxalq leksikasidan joy oladi, urfga aylanadi. Shuning uchun ham turg'un o'xshatishlar tildagi tayyor birliklar hisoblanadi. Doimiy o'xshatishlar xalq tilida uzoq vaqt foydalanilganligi sababli so'zlovchilar nutqida mustahkam o'rnamshib qoladi.

Lingvomadaniyatshunoslikni ko'proq turg'un o'xshatishlar qiziqtiradi. Negaki "turg'un o'xshatishlar milliy ong jumbog'ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi", "dunyoni o'ziga xos milliy tarzda ko'rish o'xshatish semantikasida aks etadi"⁵.

O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasida ham turg'un o'xshatishlardan ko'p foydalanilgan bo'lib, ular quyidagilar: muzdek ter, yeldek ucharmish, muzdek kaftini, qizlardek tortinchoq, kuyovlardek yasanib, muzdek suv, onalardek mehribon kabi. Ularning har biri asar tilining tushunarli va go'zal bo'lishiga ta'minlashga xizmat qilgan.

Turg'un o'xshatishlar. Ikki obyekt o'rtasidagi o'xshashlik mazmunini ifodalovchi, til egalari lisoniy xotirasida malum bir qoliplar shaklida saqlanadigan konnotativ turg'un birikmalar; obrazli milliy tafakkur mahsuli. Turg'un o'xshatishlarning o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan va milliy etnik xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, beozorlik etalonining o'zbek tilida musicha, ingliz tilida

³ Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 117.

⁴ Mahmudov N., Xudayberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. –Toshkent: Ma'naviyat, 2013. –B. 5.

⁵ Маслова В. А. Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Вестью учеб, заведений. –М. Издательский уентр "Академия" ,2001. –С. 133-134.

kabutar, koreys tilida esa sigir tushunchasini bidiruvchi so'zlar vositasida ifodalanishi bunga misol bo'la oladi⁶.

O'xshatishlardan xalq og'zaki ijodida ham keng foydalaniladi. Ularni deyarli barcha baxshilar yoki ertakchilar nutqida uchratishimiz tabiiy, chunki o'xshatishlar asarning qiziqarligini ta'minlab, eshituvchini o'ziga jalb qiladi, ertak eshitayotgan bolalarning tasavvur ko'lamini yanada kengaytiradi. Sababi shundaki, u o'ziga notanish narsani tanish narsalarga o'xshatish orqali yaxshiroq o'rganadi va bilib oladi.

O'xshatishning boshqa qurilmalaridan farqli ravishda, o'xshatishga asoslangan matnlarda " o'xshatish asosi, ya'ni ikki obyektning bir-biriga o'xshatish uchun asos bo'lgan bog'lovchi so'z orqali emas, balki jumlar orqali hosil bo'ladi. Masalan: Ilk muhabbat bahor osmonidagi bulutga o'xshaydi. Oppoq. Pokiza. Shaffof... Na qo'lingiz bilan tutasiz. Na ortidan yugurib yetasiz... Shamol uni qayoqqa olib ketishini ham bilmaysiz... Birinchi muhabbatning ko'pincha natijasiz tugashi balki shundadir... (O'. Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar). Bu matnda birinchi gapda o'xshatilayotgan narsa berilgan bo'lib, keying gaplar uni nimalarga o'xshashini ifodalagan.

Matn-o'xshatish. Mazmunan ikki tushuncha yoki vaziyatning o'zaro o'xshashligi ifodalangan matn; o'xshatish birliklarining bir turi. Kimdir kattaroq asar yozib tugatgan adibni eli chiqib ketgan pufakka o'xshatgan ekan. Haqiqatan, yig'ilgan hayotiy material, ko'rgan-kechirganlar, o'ylagan o'ylar- hammasi shu asarga sarf bo'ladi-yu, qalbi bo'm-bo'sh bo'lib qoladi kishi.(O. Yoqubov)⁷.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, o'xshatishlardan foydalanish asarda juda muhim ahamiyat kasb etadi va tilimizning naqadar go'zal va serqirra ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azim Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" ilmiy nashriyoti, 2002, -B. 140.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni. 1.- Toshkent: O'zFA, 1963. _B. 404.
3. Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 117.
4. Mahmudov N., Xudayberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. –Toshkent: Ma'naviyat, 2013. –B. 5.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Ввстью учеб, заведений. –М. Издательский уентр "Академия" ,2001. –С. 133-134.
6. D. Xudoyberganova. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: "Turon zamin ziyo", 2015.-B. 37.
7. O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. "Yangi asr avlodi", 2015.
8. O'. Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. "Yangi asr avlodi", 2015.

⁶ D. Xudoyberganova. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: "Turon zamin ziyo", 2015.-B. 37.

⁷ D. Xudoyberganova. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: "Turon zamin ziyo", 2015.-B. 30.